

BOSHLAG'ICH SINFLARDA SIFATNI O'RGANISH TIZIMI

Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Bobonazarova Durdona

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-bosqich 3BT-21 guruh talabasi

Annotasiya: *ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sifat turkumi yuzasidan o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malakalar, boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish bosqichlari va izchilligi, sifatni o'rganishda qo'llanadigan metodlar, sifat so'z turkumini o'rganishda qo'llaniladigan mashqlar tizimi aytib o'tilgan.*

Annotation: *in this article, the knowledge, skills, qualifications, the stages and consistency of studying quality in primary grades, which are formed by students in relation to the category of quality in primary grades, etc.*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются знания, умения, квалификация, этапы и последовательность качества обучения в начальных классах, которые формируются у учащихся применительно к категории качества в начальных классах и т.д.*

Kalitso'zlar: *sifat, bilim, ko'nikma, malaka, shakldoshsifat, ma'nodoshsifat, qarama-qarshima'nolisifat, suhbatmetodi, induktivmetod, analitikmetod, aqliyhujum, tarmoqlashmetodi, deduktivmetod, sintetikmetod, yarimizlanishlimuammolimetod, mustaqilishmetodi.*

Key words: *quality, knowledge, skill, skill, formative quality, semantic quality, opposite meaningful quality, interview method, inductive method, analytical method, brainstorming, branching method, deductive.*

Ключевые слова: *качество, знание, умение, умение, формообразующее качество, смысловое качество, противоположность. содержательное качество, метод интервью, индуктивный метод, аналитический метод, мозговой штурм, метод ветвления, дедуктивный.*

SIFATNI O'RGANISH METODIKASI

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashib boradi. O'quvchilar I va II sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar. 10-hafta 2-dars. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan



so'zlar: Shaxs va narsa belgisini bildirgan so'zlar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladi. Qanday? Katta, buyuk. Qanaqa? Qizil, nordon.

Topshiriq. She'rni ko'chiring. Belgini bildirgan so'zlarni aniqlab, tagiga to'lqinli chiziq chizing. Havorang, oq va yashil, Bordir qizil belbog'i. Shuning uchun chiroyli O'zbekiston bayrog'i. Men ijod qilaman. Tinchlik so'zining ma'nosini "Besh barmoq" mashqi asosida tasvirlab bering.

TINCHLIK - BU... 🖐

Ona tili va o'qish savodxonligi 10-hafta 4-dars. Topshiriq. Matnni ko'chiring. Belgini bildirgan so'zlarni aniqlab, tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Yomg'irdan so'ng osmonda yorqin kamalak ko'rinadi. Kamalakda yettita rang bor. Ular qizil, sariq, yashil, pushti, binafsha, och zangori, nim pushti ranglar. Kamalak juda chiroyli manzara hosil qiladi. Kamalakning go'zal ranglari osmonda uzoq vaqt turmaydi. U tezda ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Oilada tinchlik bo'lishi uchun nima qilish kerak?
2. Aka-uka, opa-singillarning urishib qolishiga qanday qaraysiz?
3. Siz oila a'zolaringiz bilan inoqmisiz?
4. Agar ular bilan bahslashib qolsangiz, kechirim so'raysizmi?
5. Tezda yarashib keta olasizmi? Nima uchun?

Ona tili va o'qish savodxonligi 2 III sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; IV sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam yashil kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlarni bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun I sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) ravishda olib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (I, II sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (III sinf); 3) shu grammatik mavzu



bilan bog‘liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o‘zlashtirish (IV sinf). Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma‘nosi va so‘roqlari ustida kuzatish o‘tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo‘lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma‘nolarini aniqlash talab etiladi. O‘qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma – qizil, shirin, yumaloq olma:(qanday?) ip – uzun, ko‘k ip. Albatta, suhbat asosida o‘quvchilar olma, ip so‘zlari nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O‘qituvchi atrofimizni o‘rab olgan predmetlarning o‘z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (Qanday daraxt? – Katta, chiroyli, sershox, ko‘m-ko‘k daraxt. Qanaqa shkaf? – Oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar predmet belgisini bildiradi. O‘quvchilar belgi bildirgan bunday so‘zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko‘p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarni tushirib qoldirib, so‘ngra sifatlari bilan o‘qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko‘rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so‘zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko‘rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi. O‘quvchilar qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan (predmet belgisini bildirgan) so‘zlarni o‘zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so‘roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so‘zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish; 3) matndankim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni va unga bog‘langan qanday? va qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni tanlab (so‘z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so‘zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish. Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: “sifat” tushunchasini shakllantirish hamda o‘quvchilar nutqini yangi sifatlardan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hal qilinadi. “Sifat” tushunchasini shakllantirish o‘quvchilarning “predmet belgisi” degan umumlashtirilgan kategoriyani o‘zlashtirish darajasiga bevosita bog‘liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xilxususiyat bildiradigan so‘zlar guruhlanadi va shu so‘zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma‘nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o‘quvchilar uning



soʻz turkumi sifatidagi oʻziga xos koʻrsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi, b) qanday? yoki qanaqa? soʻrogʻiga javob boʻladi, v) gapda otga bogʻlanib, shu ot bilan soʻz birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali boʻlak vazifasida keladi. Bu sinfda ogʻzaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bogʻi yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta oʻrin beriladi. Oʻquvchilarning sifatning leksik maʼnosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini oʻstirish uchun: 1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday shaftoli? Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday kitob? Qalin, qizil kitob; 2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki); 3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi oʻrnini puxta oʻzlashtirishga erishish uchun maʼnodosh va zid maʼnoli sifatlar ustida ishlash, oʻqish darslarida sifatning oʻz va koʻchma maʼnoda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni oʻrganish jarayonida soʻz yasashga oid mashqlarni muntazam oʻtkazib borish oʻquvchilarda u yoki bu soʻz turkumini yasash uchun soʻz yasovchi qoʻshimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, ogʻzaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, oʻrinli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish bilan bogʻliq holda -roq qoʻshimchasi bilan qoʻllangan sifatlar va koʻm-koʻk, yam-yashil kabi sifatlar toʻgʻri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va oʻquvchilar nutqini oʻstirishga qaratiladi. Nazariy maʼlumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlar tanlab qoʻyish, gapda sifat bogʻlangan otni (soʻz birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki soʻz birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -roq qoʻshimchasi bilan qoʻllangan yaxshiroq, aqlliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar koʻproq boʻlishiga eʼtibor beriladi. Oʻquvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boradi. 6. Sifatning gapda ikkinchi darajali boʻlak vazifasida kelishini, uni toʻlqinli chiziq orqali belgilay olishi.

7. Sifatlar toʻgʻri talaffuz qila olishi. 8. Sifatlardan ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri va oʻrinli foydalana olishi. 9. Sifatlarga shakldosh soʻzlar, maʼnodosh, qarama-qarshi maʼnoli sifatlar topa olishi.

Malaka:



1. Sifatlarning ma’nosini izohlay olishi.
2. Sifatlarning talaffuzi va yozilishini izohlay olishi.
3. Imlo lug’atdan foydalana olishi.
4. Sifatlarni o’qilgan asar matnidan topa olishi
5. Berilgan sifat ishtirokida birikma va gap tuza olishi.
7. O’qiganlari, kuzatganlari va rasm asosida sifatlarni qatnashtirib kichik hikoyacha tuza olishi.
8. Matndagi sifatlarni boshqa ma’nodosh sifatlar bilan almashtirisha bilishi.

Sifatni o’rgatishda quyidagi metodlarni qo’llang va ularning eng samaradorini ajratib, izoh bering: suhbat metodi Induktiv metod Analitiz-sintez metodi, aqliy hujum, tarmoqlash metodi, deduktiv metod, yarim izlanishli muammoli, metod mustaqil ish .

XULOSA

O’quvchilar matn yaratishga bosqichma-bosqich: so’z ustida ishlash, gap va uning mantiqiy bog’lanishi ustida ishlash, og’zaki hikoya tuzish va uni yozma shakllantirish tarzida maxsus tayyorlab boriladi. Shunday qilib, muammoli o’qitishning vazifasi o’quvchilar tomonidan bilimlarni puxta o’zlashtirish va aqliy hamda amaliy, mustaqil faoliyatlarini samarali bo’lishiga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo’llash malakasini shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2-sinf ona tili va o’qish savodxonligi.2022
2. G’afforova T. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O’quv qo’llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011. 3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari Toshkent: 2015.- 208 bet.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o’qitish metodikasi, Toshkent-2009.
5. Google.com

